

QÍYAS JIROV HAYOTI VA IJODI BÓYICHA ILMIY-PUBLITSISTIKAVIY MAQOLALARGA ILMIY TAHLIL

Yaxiyeva Shaxnoza,

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Qoraqalpog'iston bo'limi Qoraqalpog'iston gumanitar fanlar instituti, Nukus shahri

Annotatsiya. Bu maqolada Qoraqalpog' folkloristikasida óz órniga ega Qiyas jirov Qayratdinovning hayoti va ijodi haqidagi ilmiy-publitsistikaliq maqolalarga ilmiy tahlil ishlandi.

Kalit so'zlar: Doston, jirov, ustoz-shogird, terme-tolgov, folklor, jirov, poema, ertek, tolgov.

Аннотация. В данной статье проведен научный анализ научно-публицистических статей о жизни и творчестве Кияса жырау Кайратдинова, занимающего особое место в каракалпакской фольклористике.

Ключевые слова: Дастан, жырау, учитель-ученик, терме-толгау, фольклор, жырау, поэма, сказка, толгау.

Abstract. This article provides a scholarly analysis of scientific and journalistic articles about the life and work of Qiyas Jirov Qayratdinov, who holds a prominent place in Karakalpak folklore.

Keywords: Doston, jirov, ustoz-shogird, terme-tolgov, folklore, jirov, poem, fairy tale, tolgov.

Kirish. Jirovlar haqida dastlabki ilmiy asarlar XX asrning 50-60-yillaridan boshlab nashr etila boshlandi. Qiyas jirov haqida dastlabki keng ko'lamli ma'lumotlar Najim Davqaraevning, Qobil Maqsetovning 1983-yili Nukus "Qoraqalpog'iston" nashriyotida nashrdan chiqqan "Qoraqalpog' jirov, baxshilari" degan asarida, Qalli Ayimbetovning Nukus "Qoraqalpog'iston" nashriyotida 1988-yili nashrdan chiqqan "Xalq donoligi" kitoblarida berildi. So'nggi davrda Sarigul Bahodirova, Jalg'as Xoshniyazov, Sapira Bavotdinova, Tajigul Adambayeva, Kenesbay Allambergenov, Abadan Saparova, Kamal Palimbetov, Jalg'as Aytmuratov, A.Alimov, T.Niyetullayev, Hamdam Abdiraman o'g'li, va Z.Zaripovalarning asarlarida Qiyas jirov Qayratdinovning hayoti va ijodi bo'yicha bir qancha ilmiy va publitsistik maqolalari chop etildi. Qoraqalpog' doston ijrochilari baxshi-jirovlarning o'ziga xos mahorati, ijro usullari shu paytgacha o'rganilmagan.

Bu haqida Professor N.Davqarayev: "Qurbonboy jirov "Qirq qiz" poemasini har xil qilib, o'zgartirib aytadi. "Alpomish" poemasini O'giz jirov to'liq aytsa, Qiyas jirov qisqa, oshiqlikka moyil joylarini aytadi. Esemurat jirov yuqori qatlamning tilini arab, fors, chig'atoy so'zlarini qo'shib aytsa, O'giz, Qiyas, Qurbonboylar haqiqiy xalq tilida aytadi. Qoraqalpog' xalq artistlari Japaq baxshi bilan Eshjon baxshi yoki Juman baxshilarning repertuarlari ham, aytish texnikasi ham, kuylari ham har xil, chunki har biri har xil maktabning shogirdlari. Og'zaki adabiyotni o'rganishda bu holatlar qattiq e'tiborni talab qiladi. Biroq shu kungacha qoraqalpog' eposli dostonlari, ularning aytuvchilari haqida ta'kidlab aytarli birorta ilmiy asar yo'q bunday ish shu kungacha o'zining tadqiqotchisini kutib turgan muammo bo'lib keldi" [1] - deb keltiradi. Bu haqda S.Bahodirovaning ham ajoyib fikrlari bor.

Haqiqatdan ham shu vaqtgacha xalq og‘zaki ijodining katta qismini tashkil etuvchi dostonlarning tili, poetikasi o‘rganilgani bilan ularning ijrochilarining, bizga yetkazuvchilarning hayoti va ijodi maxsus tarzda o‘rganilmagan.

Qiyas jirov Qayratdinov haqidagi dastlabki ma‘lumotlarni biz eng birinchi marta qoraqalpoq xalq og‘zaki ijodini xalq orasidan piyoda yurib yozib olgan, so‘ngra o‘zining ilmiy-nazariy bilimlari bilan bo‘lishgan olim, "arxiv" unvonini olgan, Filologiya fanlari doktori professor Qalli Ayimbetovning "Xalq donoligi" asaridan oldik [2].

Metodologiya. Tadqiqot davomida quyidagi uslublar asos qilib olindi:

- Dialektik yondashuv: tabiat, jamiyat va bilish taraqqiyoti yo‘lida bahs-munozara olib borishadi.

- Ilmiy bilish yondashuvi: bu usul orqali bilimlar majmui va predmetning mohiyatini anglash, balki unga eltuvchi yo‘l ko‘rsatiladi.

- Axloqiy-falsafiy yondashuv: tarixiy namoyondalar va qahramonlarning harakati va orqali badiiy saboq yoritiladi.

Tahlil va natijalar. Qiyas jirov hayoti va ijodi haqida to‘liq ma‘lumotni Filologiya fanlari doktori Qobil Maqsetovning 1983-yili "Qoraqalpoq jirov baxshilari" kitobidan olish mumkin. Qiyas jirov Qayratdinovning 60 yilligida qilgan ma‘ruzasida ham bu ma‘lumotlarni keltirib o‘tadi.

Olim kitobning kirish so‘zini bunday boshlaydi: "O, mening sahrolarni tinmay kezgan g‘ayratli bobolarim, ne zamonlarni ko‘rmading sen, ne podsho xonlarga qarshi oyoq tirab turmading sen! Son ming yovlarning qon tomgan qilichining ostida qaysarlik bilan urush olib borgan, el deb yig‘lagan botirlaring bilan xalqing uchun jonini bergan azamatlaringni ko‘zi ko‘rib, qulog‘i eshitgan Idil, Yoyiq qirg‘oqlari, Turkiston dalalari, Amudaryo bo‘ylari qo‘shiqqa aylantirdi. Og‘ir taqdirda beling qayishib, Alpomishim. Qo‘blonim, Barchinim, Qurtqam, Arslonim, Guloyimim bo‘lsa ekan deb oh urganda iching o‘tday yonib, bag‘ring ezildi. Doimo qayg‘u tumani qoplagan umringning goho bulutdan chiqqan kundek quvonchi qo‘lga qo‘biz olib, el botirlarini kuylashga seni majbur etdi. Quvonch ketganda sen kuylaganda gina qayg‘uni vaqtincha unutar eding. Qoraqalpoq jirov-baxshilari haqiqatdan ham qoraqalpoq folklorining asosiy ijodkorlari va ijrochilari bizning davrimizga shu xalqning boy merosini yetkazuvchilar hisoblanadi." [3]

Professor kitobning muqaddimasida jirovlarning boshidan kechirgan qiyin holatlarini, ularning ko‘ngil kechinmalarini, qiyinchiliklarini keltirib, xalq og‘zaki ijodini bugungi kunga yetkazgan jirov-baxshi ekanligini tan olib o‘zining minnatdorchiligini bildirib o‘tgan. Kitob XIV Soppasli Sipira jirovdan boshlab XX asrdagi Genjaboy baxshiga qadar jirov baxshilar keltirilgan. Kitobning 93-109-betlarida biz so‘z yuritayotgan Qiyas jirovning hayoti, ijodi va mehnat yo‘li haqida keltirilgan. Professor jirovlar haqida: "Ular san‘atining ahamiyati o‘tgan davrning va musiqiy merosini kelgusi avlodga yetkazish bilan belgilanadi" [4] - deb keltiradi. Aslida 1970-80-yillargacha jirovchilik xalq orasida obro‘li kasb bo‘lib ustoz-shogird an‘anasi asosida rivojlanib keldi. Ammo, shu davrdan

boshlab xalqimiz orasidagi yoshlar jirovchilikka qiziqmay qoldi. Bu ikki davrning tutashgan vaqti edi.

Shuning uchun biz professorimiz keltirganidek jirovchilikni yangi zamonga olib kirgan Qurbonboy, Erpolat, Qiyas, Jumaboy, Yaxshiliq, Boqbergen jirov kabi jirovlarimizga minnatdorchilik bildirishimiz kerak.

Biz olimning bu mehnati orqali jirovning bolalik davrining qiyin sharoitda o'tganligini shuning bilan birga bolaligida bo'lgan mana voqea bu mehnatdan boshqa hech yerda keltirilmaganligiga guvoh bo'lib bu mehnatning biz uchun, qoraqalpoq folkloristikasi uchun qanchalik darajada ahamiyatli, qimmatli mehnat ekanligini bilib o'tiribmiz: "Ro'zim boyning qaramog'ida Qiyas uzoq vaqt cho'ponlik qila olmaydi. Bir kuni shu qishloqda bir obro'li kishi mehmon bo'lib, Qiyosni tong otguncha kuylatib, uyqusidan qoldiradi. Uyqudan qolgan yosh cho'pon ertalab qo'yning ortidan ergashib ketsa ham dashtda uxlab qoladi. Cho'ponsiz qo'ylar tarqab ketadi.

Bir to'dasi qishloqqa ham yetib boradi. Tushdan oldin uyg'onib izlab yursa, boy otliq oldidan chiqib, o'zi berib qo'ygan yomon, yirtiq chaponini yechib olib, qamchisining ostiga olib, qattiq urib, so'kib, haq bermasdan Qiyosni quvib yuboradi." Xalq og'zaki ijodiyoti ertak, doston, xalq qo'shiqlari, jirovlarning terme-to'lg'ovlari hattoki xalq shoirlarining she'r satrlarida va ayrim boylarning cho'ponlarni arzimagan aybi uchun urib-so'kib xo'rlab haydab yuborish syujeti tasvirlangan. Bu degani o'sha davrdagi xalqning deyarli ko'pchiligining boshidan o'tgan og'ir holatday bo'lgan.

Professor Qalli Ayimbetov o'zining "Xalq donoligi" asarida Qiyas jirovning qoraqalpoq jirovchiligidagi o'rni va repertuarining qoraqalpoq xalq og'zaki ijodi, shu jumladan dostonlarning ko'p variantli bo'lishiga qo'shgan hissasi haqida keltirib o'tadi.

Professor asarida "1939-yili Qiyas jirov, O'giz jirov, Esemurat jirovlar Moskvada bo'lib o'tgan olimpiadaga qatnashdi, O'zbekistonning poytaxti Toshkent shahriga bir necha bor kelib, qo'biz chalib, qo'shiq aytib, ko'pchilikni hayratga soldi. 1956-yili Toshkent shahrida bo'lib o'tgan "Alpomish" dostoniga bag'ishlangan regional ilmiy yig'ilishda qatnashdi, unda og'zaki adabiyotni o'rganuvchi olimlar Moskva, Leningrad shaharlarining Ozarbayjon, Qozog'iston, Armaniston va yana boshqa Respublikalarning delegatsiyalari oldida Qiyas jirov qo'biz chalib, qo'shiq kuylab berdi. Uning kuylagan dostonlarining ko'pchiligi o'z og'zidan yozib olinib, kitob qilib chiqarildi"[5] - deb keltiriladi. Professor Qalli Ayimbetovning ko'rsatishicha Qiyas jirov qoraqalpoq xalqining jirovchilik san'atini faqat qoraqalpoq xalqi ichida ko'rsatib, tanitib qolmasdan o'zining boy repertuarini dunyo olimlari oldida ko'rsatgan. Olim yana jirov haqida "U o'zidan oldingi jirovlar haqidagi ko'p afsonalarni biladi, ko'p jirovlar bilan bir necha joylarni birga yurgan, ko'pchiligini ko'zi bilan ko'rgan. O'zidan katta jirovlardan ko'p so'zlar, ertaklar tinglangan. Qiyas jirov dostonlarni, qo'biz kuylarini yozdirib adabiy, madaniy meroslarni o'rganishga ko'p yordam bergan."[6] Bundan biz Qiyas jirov repertuarini folklorshunoslik ilmiga o'z hissasini qo'shgan jirov deb aniq aytamiz. Qoraqalpoq xalq og'zaki ijodining

to'plovchilaridan, folklorshunoslik ilmiga o'z hissasini qo'shib kelgan Filologiya fanlari doktori, Professor Sarigul Bahodirova va o'z ishlarida, intervyularida Qiyas jirov Qayratdinovning hayoti va ijodi haqida, ijro etgan dostonlarining qiyosiy o'rganilishi haqida ma'lumotlar beradi.

Olimning "Qoraqalpoq qanday xalq" asarida alohida kichik mavzu qilib "Alpomish" dostonida Qiyas jirov foydalangan nomalar" nomi bilan birgina "Alpomish" dostonida kuylangan 32 nomani dostonidagi qo'llanilgan so'zlari bilan keltirib o'tadi.

Professor Sarigul Bahodirovaning "Qoraqalpoq xalq dostonlari "Qirq qiz," "Alpomish," "Qo'blon," "Edige" nomli asarida Qiyas jirovning epik asarlari haqida bir qancha ma'lumot keltirilgan.[7] Qozoq olimi K.Jumaliyev "Alpomish" dostonining qozoqcha Maykot Sandibayev varianti bilan qoraqalpoqcha Qiyas jirov variantini solishtirib o'rgangan. [8]

Qiyas jirov haqida yozilgan asarlardan Filologiya fanlari nomzodi Sapura Bavotdinovanning Amudaryo jurnalida "Qiyas jirov ijodi" nomli ilmiy maqolasini qimmatli asarlardan deb aytamiz. Maqolada "Qiyos jirov 1942-yili Toshkentda "Alpomish" dostoniga bag'ishlab o'tkazilgan mintaqaviy ilmiy-nazariy anjumanda qatnashib, 24 ta xalq kuyini ijro etadi va magnit tasmaiga yozdiradi. 1960-yili Moskvada o'tkazilgan butun jahon sharqshunoslarining XXV kongressiga qatnashib "Qirq qiz" dostonini kuylaydi[9].

Qiyos jirov haqidagi bu ma'lumotlarni biz ilgari boshqa manbalarda ko'rgan bo'lsak-da, nechta kuy va qaysi dostonni ijro etganligi haqida to'liq ma'lumotga ega emas edik. Yana Qiyas jirov asarlarining qiymati, jirovning mahorati haqida: "Masalan "Alpomish" va "Edige" dostonlari klassifikatsiyasi bo'yicha qahramonlik eposlar janriga kirgani bilan ikkisining g'oyasi katta ikki yo'nalishda o'z aksini topgan. Birinchisi "Alpomish" dostonida tashqi dushmanlarga qarshi kurash, ikkinchisi "Edige" dostonida ichki dushmanlar, el-yurt ichidagi o'zaro kelishmovchilik, adolatsizliklarni tasvirlashga qurilgan. Jirov asarning shu xususiyatlariga katta ma'no berib tashqi dushmanlarga qarshi kurash olib borayotgan qahramon obrazini maksimal tipiklashtiradi, turmush tashvishlariga qurilgan "Bozo'g'lon," "Edige" kabi dostonlarni kuylaganda do'stlikni, vafodorlikni, ayrilqni va yana boshqa hodisalarni o'z o'xshatishlari bilan cho'qqisiga chiqarib kuylaydi"[10] - deb keltiradi.

Haqiqatda Qiyas jirov qaysi dostonni kuylamasin o'sha dostonning ideologiyasini, syujetini o'rganib undan so'ng asosiy syujetni o'zgartirmasdan she'r qatorlarini bir-biriga qofiyalab kuylagan.

S.Bavatdinova Qiyas jirovning mahoratini, uning iste'dodini, o'zi bilan zamondosh jirovlardan nimasi bilan ajralib turishi haqida quyidagicha fikr bildiradi: "Qiyas jirovning o'zidan oldingi va o'zidan keyingi jirovlardan farqi - folklor asarlarining qanday kelib chiqish tarixiga qiziqishi va uni o'z repertuarini yozib oluvchilarga qiziqarli hikoya qilib berishi bilan ajralib turadi. Uning folklor asarlari haqidagi ma'lumoti shunchaki bir afsona

emas, tarixiy ildizlarga olib boradigan jonli hikoyalar, hozirgi vaqtda tarixchilar folklor asarlarini "og'zaki-tarix" deb baholayotgan davrda Qiyas jirovning, har tomonlama iste'dodli xalq jirchisining fikrlari e'tiborga loyiq"[11].

Chindan ham Qiyas jirov otasidan, ustozlaridan, zamondoshlaridan eshitgan tarixiy voqealarni, afsona-rivoyatlarni qulog'i qattiq bo'lganligi uchun o'zidan keyingi shogirdlariga, zamondoshlariga aytib beradigan bo'lgan.

Kompozitor, "Oltin meros" xalqaro fondi rahbari Abadan Saparova Qiyas jirov tug'ilganiga 100 yil to'lishi munosabati bilan "Xalqni hayratga solgan jirov edi" nomli maqolasini e'lon qildi. Maqolada jirovning hayot yo'liga to'xtalib o'tib, uning doston ijro etish mahorati haqida so'z yuritilgan. "U o'zi kuylagan dostonlarning paydo bo'lish va kuylanish, o'rganilish tarixi bilan qiziqib, o'zi biladiganlari haqida ma'lumotlar bergan. Masalan "Maspasha dostonining Qiyas jirov ijro etgan varianti boshqa jirovlar variantiga qaraganda eng to'liq"[12] - degan fikrni bildiradi.

Haqiqatdan ham Qiyas jirov kuylagan "Maspasha" dostonining versiyasi boshqa jirovlar yaratgan versiyalariga nisbatan eng to'liq, syujetlari yaxshi tasvirlab berilgan versiya. Bu haqida professor Q.Maqsatov ham o'zining xulosaviy fikrini keltirgan: ""Maspasha" she'r bilan qora so'zning qo'shilishidan iborat. Ayniqsa dostonning Qiyas jirov varianti badiiyligi jihatidan juda yuqori darajada. Bu dostonda Qiyas jirovning mahoratining toshgan zavqi ko'rinadi. Qiyas jirov kuylagan "Maspasha" dostoni 10 ming qatorga yaqin she'rdan iborat"[13].

A.Saparova o'zining maqolasida "Qoraqalpoq jirovchilik madaniyatida Nurota maktabining o'rnini alohida. Bu maktabda Do'stmuhammad, Qozoqboy, Qurbon va yana boshqa jirovlar ta'lim olib o'z iste'dodlarini takomillashtirgan.

Shularning biri Begmurod jirov bilan bir necha marta suhbatda bo'lgan, uni ustoz tutingan"[14] - degan ma'lumotni keltiradi. Bu yerda muallif Qiyosning jirovchilikdagi ustozlari Buxorolik Begmurod jirov deb jirovning haqiqiy ustozlari Chimboylik Begmurod jirov bilan adashtirgan. Ikki jirovning nomlari bir xil bo'lganligi uchun muallif adashgan bo'lsa kerak. Bu haqida J.Aytmuratov bunday deydi: "Uzoqdan yetgan soz" maqolasida keltirib o'tadi. "Qiyosning jirovchilik kasbiga ixlos qo'yishida va doston termalarni yod bilishiga birinchidan otasi Hayratdin sabab bo'lsa, ikkinchidan jirovchilik kasbini egallashida 1923-1927-yillar oralig'ida "Oq qal'a"da Bekmurod jirov va Abdirasuli (kal bola) jirovlarga shogird bo'lishi bosh sabab bo'ldi"[15] - deb keltiradi. Bunda muallif Qiyas jirovning ustozlari qaysi Begmurod ekanligini, qaysi yillarda shogirdlikka tushganligini to'liq va aniq yozgan. Ammo maqolada bu ma'lumot qaysi manbadan olinganligi haqida yozilmagan.

Qiyas jirovning hayot va ijod yo'lini o'rganishda yana bir qimmatli asar Jalg'as Aytmuratovning jirovning 90 yilligiga bag'ishlangan "Uzoqdan yetgan sado" nomli maqolasini keltirish mumkin. Maqolani jirovning umr yo'liga to'xtalib o'tib, boyning molini boqib cho'ponlik qilganini, yo'q-yo'qchilikda kun kechirganligini jirovning o'zi yozgan she'r satrlari bilan dalillab keltiradi.

Masalan: Tóre aqsaqal jala salıp,
Jalgız eshkimdi tartıp alıp,
Ata-anam súrginge aynalıp,
Qańgalagan edi basım... [16]

Haqiqatda biz jirovning yoshlik davrining og'ir mehnatda, adolatsizliklarga to'la bo'lganligini jirov haqida yozilgan boshqa asarlardan o'rgangan edik. Muallif maqolasida "Jirovning o'zidagi qo'bizga va o'z kasbiga bo'lgan muhabbati quyidagicha she'r satrlarini paydo etadi" - deb jirovning yozgan she'r satrlarini keltiradi:

Tariyx dástan aytıw, kásibiń káriń,
Tiyegiń qabaqтан, tuw quyriq tariń,
Yadqa salǵan, eski turmıs xabarın,
Ásirler gúwası jańla qobızım... [17]

Qo'biz haqida jirovning o'zi yozgan bu she'r satrlaridan jirovning iste'dodining yuqori darajada ekanligini va bu maqolada keltirilganligi orqali maqolaning qimmatini bilsak bo'ladi.

Keyingi asarni A.Alimov va T.Nietullayevlar Qiyas jirovning 70 yoshga to'lishiga bag'ishlab "Asrlarning guvohi" nomli maqolasini e'lon qiladi. Maqolada jirovchilik haqida ham Qiyas jirovning hayoti va ijodiy yo'liga to'xtalib o'tilgan. Qiyas jirov faqat shoir-jirov bo'lib qolmay musiqa san'atini yaxshi egallagan. Bu haqda asarda shunday deyiladi: "Qiyos Xayratdinov xalq musiqa xorini bezavol yig'ib boruvchi jonli shajara sifatida musiqa folklorshunoslarini, kompozitorlarni uzoq vaqtlardan beri qiziqtirib keladi. 1930-yillardan keyin Tumanyan, Komponets va 1940-yillari V.Shafranikov, A.Xalimovlar Qiyosning ijrosida bir qancha kuylarni yozib oladi.

So'nggi vaqtlarda san'atshunoslar jirovning 40 dan ortiq klassik kuylarini magnit plyonkasiga yozdi." [18] Rostdan ham Qiyas jirov faqat doston, terme-to'lg'ov yoki qo'shiqlarni yoddan bilib olmasdan musiqa borasida ham savodli, iste'dodli jirov bo'lgan. Mualliflar maqola yakunida Qiyas jirovga "U xalq she'riyati va san'atining bitmas-tuganmas xazinasini qadrllovchi, xalq mehrini qozongan hurmatli jirov"[19] - deb yuqori baho beradi. Biz bu mehnat orqali jirovning folklor va san'at sohasi ilmi uchun hissa qo'shadigan o'z o'rniga ega betakror jirov ekanligiga yana bir bor qoyil qoldik.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda biz XX asrda yashab, ijod etgan Qiyas jirov Qayratdinovning hayoti va ijodi haqida yozilgan ilmiy va publitsistik asarlarni sharhlash orqali jirovning umri davomidagi qiyinchiliklarga bo'yin egmay, bizga boy xalq og'zaki ijodini yaratib va yetkazib ketganligiga guvoh bo'ldik.

Qiyas jirov Qayratdinovning bizga qoldirgan asarlari folkloristika ilmida yillar davomida ilmiy jihatdan o'rganilib tahlil qilinishiga ishonchimiz komil.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. N.Dawqaraev Shigarmalarini toliq jynagi 2-tom Qaraqalpaqstan "Nokis" 1977. 192-bet.
2. Айымбетов К. Халык даналыг. Нокис. Каракалпакстан.1988.89-90-б.
3. Каракалпак жырау баксылары Максетов Кабыл «Каракалпакстан» баспасы Нокис-1983 93-б.

4. Каракалпак жкрау баксылары Максетов Кабыл «Каракалпакстан» баспасы Нокис-1983 93-б.
5. Айымбетов К. Халык даналыгы. Нокис.Каракалпакстан.1988.90-б.
6. ОзРИА КБ Китапханасы. Кол жазбалар фонды. Артык Каримовтын Хожели хам Нокис каласынан жазып алган материаллары.
7. Бахадырова С. Каракалпак халык дастанлары «Кырык кыз», «Алпамыс», «Коблан», «Едиге». Ташкент.2024.30-30-бб.
8. Алпамыс. Жиёмурат жырау Бекмухаммед улы варианты.Сборник материалов для статистики Сыр-дарьинской области. Ташкент.1902.
9. Бауетдинова С. Амиударья журналы.
10. Бауетдинова С. Амиударья журналы.
11. Бауетдинова С. Амиударья журналы.
12. Сапарова А. Амиударья журналы
13. К.Максетов Дастанлар, жыраулар, баксылар
14. Сапарова А. Амиударья журналы
15. Айтмуратов Ж.Еркин Каракалпакстан. №10.1994.15.01.
16. Айтмуратов Ж.Еркин Каракалпакстан. №10.1994.15.01.
17. Айтмуратов Ж.Еркин Каракалпакстан. №10.1994.15.01.
18. Алимов А., Ниетуллаев Т. Амиударья журналы 1974.№1 109-112-б.
19. Алимов А., Ниетуллаев Т. Амиударья журналы 1974.№1 109-112-б.

